YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH SHAROITIDA TIJORAT BANKLAR TOMONIDAN TADBIRKORLIK FAOLIYATINI KREDITLASH

Tajiddinov Jamshiddin Shamsutdinovich
Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mustaqil izlanuvchi
Tel:+998998156860
e-mail:tajiddinov84@gmail.com
ORCID: 0009-0003-0879-0975
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20314451

Annotatsiya: davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo'nalishlariga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan "yashil" mezonlami kiritish, ta'limga investitsiyalar kiritishni rag'batlantirish, , "yashil" ish o'rinlarini yaratish, aholining farovonligini oshirish orqali mavjud makroiqtisodiy maqsadlarga erishish, resurslardan samarali foydalanish tadbirlarining investitsion jozibadorligini ta'minlash, banklar tomonidan berilayotgan kreditlar monitoringi, O'zbekistonda uzoq muddatli istiqbolda "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasining tamoyillari, Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish.

Kalit so'zlari: Yashil iqtisodiyot, investitsiya, moliya tashkilotlari, raqobat, resurslardan unumli foydalanish, strategiya, ekologiya, qimmatli qog'ozlar, kredit, aktiv.

Abstract: introduction of "green" criteria based on advanced international standards into priority areas of state investments and expenditures, encouragement of investments in education, creation of "green" jobs, achievement of existing macroeconomic goals by increasing the well-being of the population, ensuring the investment attractiveness of resource-efficient measures, monitoring of loans issued by banks, principles of the strategy for the transition to a "green" economy in Uzbekistan in the long term, acceleration of reforms in the banking system, increasing the size of the banking services market and developing competition in the industry.

Keywords: Green economy, investment, financial institutions, competition, efficient use of resources, strategy, ecology, securities, credit, asset.

KIRISH

Mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining qabul qilinishi "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash omillaridan biri ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalami izchil amalga oshirish jumladan, Parij bitimi majburiyatlari bajarilishini maqsadida 2019-yil 4-oktabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son Qarori qabul qilindi.

Strategiyadan ko'zlangan maqsad mamlakatda amalga oshirilayotgan tuzilmaviy islohotlarga "yashil" iqtisodiyot tamoyillarini integratsiya qilish orqali ijtimoiy rivojlanishga, issiqxona gazlarining ajratmalari darajasini pasaytirishga, iqlim va ekologiya barqarorligini ta'minlovchi mustahkam iqtisodiy taraqqiyotga erishishdan iborat.

Strategiya maqsadlariga erishish uchun quyidagi asosiy vazifalami amalga oshirish zarur:

texnologik modemizatsiyalash va moliyaviy mexanizmlami rivojlantirish orqali iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish;

davlat investitsiyalari va xarajatlarining ustuvor yo'nalishlariga ilg'or xalqaro standartlarga asoslangan “yashil” mezonlami kiritish;

davlat tomonidan rag'batlantirish mexanizmlarini, davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish hamda xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikni faollashtirish orqali “yashil” iqtisodiyotga o'tish yo'nalishlari bo'yicha tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirishga ko'maklashish;

ta’limga investitsiyalar kiritishni rag'batlantirish, yetakchi xorijiy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari bilan hamkorlikni rivojlantirish hisobiga “yashil” iqtisodiyotdagi mehnat bozori bilan bog'liq kadrlami tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini rivojlantirish;

Orol bo'yidagi ekologik inqirozning salbiy ta’sirini yumshatish choralarini ko'rish;

“yashil” iqtisodiyot sohasida, shu jumladan ikki tomonlama va ko'p tomonlama shartnomalar tuzish orqali xalqaro hamkorlikni mustahkamlash.[4]

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAXLILI

“Yashil iqtisodiyot” iqtisodiy fan sifatida XX asr oxirlarida shakllangan bo‘lib, iqtisodiyotning tabiiy muhitga bog’liqligi, uning tarkibiy qismi ekanligi va tabiiy muhit doirasida amal qilishini o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi resurslami tejashga yo'naltirilgan iqtisodiyot, ekologik iqtisodiyot, atrof-muhit iqtisodiyoti, yashil siyosat, xalqaro iqtisodiy munosabatlar nazariyasi,

iqtisodiyotni modemizatsiyalash, innovatsion iqtisodiyot kabi iqtisodiy fanlardagi ilmiy g‘oyalami qamrab oladi.

“Yashil iqtisodiyot” fan sifatida o‘z shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlariga ega. Tabiiy resurslaming cheklanganligi, takror ishlab chiqarilmasligi bilan bog‘liq muammolar insoniyatning barcha faoliyat yo‘nalishlari, jumladan, iqtisodiy faoliyatiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Ushbu muammoni ilmiy jihatdan o‘rganish XX asming 60-70-yillarida ommalasha boshladi. Bu davrda iqtisodiy adabiyotda an’anaviy iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan “atrof-muhit iqtisodiyoti”, deb nomlangan yangi yo‘nalish paydo bo‘ldi. Ushbu yo'nalish doirasida iqtisodiy faoliyatning atrof-muhitga ta’siri natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlami ekstemali, ya’ni tashqi samaralar sifatida talqin etish boshlandi. Unga muvofiq ekologik muammolami amaldagi iqtisodiy munosabatlar doirasida hal etish va xalqaro darajada umumlashtirilishi zarur.

Barqaror rivojlanish konsepsiyasiga nisbatan iqtisodiy yondashuvga Ye.R.Lindal va J.R.Xikslar asos solishgan. Xiks-Lindal yalpi daromadlaming maksimal oqimi nazariyasiga muvofiq daromad yalpi kapitalni saqlab qolgan holda yaratilishi zarur. Bunda cheklangan resurslar va ekologik (tabiiy resurslar, energiya va materiallami tejovchi) texnologiyalardan oqilona foydalanish, ekologik mahsulotlar yaratish, chiqindilami boshqarish nazarda tutiladi.

Ushbu masalani hal etishdagi bosh muammo qaysi kapital (jismoniy, tabiiy yoki inson kapitali) saqlanib qolishi va turli xil kapital turlari qanchalik o'zaro o‘rin almashinishi hamda ushbu aktivlar (ekologik resurslar) qiymatini baholash muammosi hisoblanadi. Natijada iqtisodiy barqarorlikning quyidagi ikki turi paydo bo'ldi:

kuchsiz-vaqt bo‘yicha kamaymaydigan tabiiy va jamg‘arilgan kapital iqtisodiy barqarorlik;

kuchli-tabiiy kapitalning kamaymasligiga (qayta tiklanmaydigan resurslami sotishdan tushgan foydaning bir qismi tiklanadigan tabiiy kapital qiymatini oshirishga yo‘naltirilishi zarurligiga) asoslangan iqtisodiy barqarorlik.[4]

TAHLIL VA NATIJALAR

50-maqsad: Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish[1]. Ijro uchun asosiy mas'ul — Markaziy bank

№	Normativ-huquqiy hujjat loyihasi	Normativ-huquqiy hujjat loyihasida nazarda tutilgan chora-tadbirlar	Ijro muddati	Hamijrochilar
	Barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashda ichki jamg'armalar va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish	1.Aholining moliyaviy savodxonligini va bank xizmatlari bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida moliyaviy ommaboplikni oshirish strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirish. 2.Aholining banklardagi depozitlari hajmini 11 mlrd dollarga va banklardagi jami muddatli depozitlarni 10 mlrd dollarga yetishini ta'minlash. 3. Tijorat banklari tomonidan iqtisodiyotga jami 300 trln so'mlik kredit resurslari yo'naltirilishini, shu jumladan kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlariga 120	2025 yil davomida	Iqtisodiyot va moliya vazirligi manfaatdor vazirlik va idoralar

50-maqsad: Bank tizimida islohotlarni jadallashtirish, bank xizmatlari bozori hajmini oshirish va sohada raqobatni rivojlantirish[1]

№	2030-yilgacha maqsadli ko'rsatkich	O'lchov birligi	2025 yil	I chorak	II chorak	III chorak	IV chorak	M'asullar
21	Bank va moliya tizimida yillik kreditlash hajmini 30 milliard dollarga yetkazish.	Milliard	23	-	-	-	23	Markaziy bank, Iqtisodiyot va moliya vazirligi
22	Bank omonatlari hajmini 4 barobarga oshirish	foiz	25	6	12	19	25	

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududdiy tadqiqotlar instituti (MHTI) mutaxassislari 2025-yil 1-fevral holatiga O'zbekiston bank tizimidagi raqobat darajasini o'rgandi.[3]

Ma'lumot uchun: bozor HHI (Xerfindal Xirshman indeksi) bo'yicha raqobat darajasiga ko'ra 3-guruhga bo'linadi, raqobat darajasi past (HHI 2500-10000 gacha), o'rtacha (HHI 1500-2500) va yuqori (HHI 1500 dan past).

Aktivlar.2025-yil 1-fevral holatiga aktivlar bo'yicha hisoblangan HHI indeksi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 72 birlikka yaxshilanib,800 ni tashkil qildi.Bu davrda tijorat banklari jami aktivlari hajmi 17.7 foizga (yki 115.6 trln.so'm) ortib, 768 trln. So'mga yetdi.

2024 yil 1-fevral holatiga xususiy va chet el kapitali ishtirokidagi banklarning bank tizimi jami aktivlaridagi ulushi 32.5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yil 1-fevral holatiga 34,5 foizga yetdi. Bu davrda "Anorbank" ulushi (1.36 foiz) 0.64 foiz bandga, "TBC" bank ulushi (1.33 foiz) 0.60 foiz bandga, "Hamkor bank" ulushi (3.71 foiz) 0.41 foiz foiz bandga oshdi.Qolaversa

davlat ulushi mavjud eng yirik banklardan “Asaka bank” (7.4 foiz) jami bank tizimi aktivlaridagi ulushi mos ravishfa 1.5 va 1.3 foiz bandga kamaydi.

Kreditlar.2025-yil 1-fevral holatiga kreditlar bo’yicha hisoblangan HHI indeksi o’tgan yilning ms davridagiga (975) nisbatan 57 birlikka yaxshilanib,918 birlikni tashkil qildi.Bu davrda xususiy va chet kapitali ishtirokidagi banklatr tomonidan ajratilgan kreditlar hajmidagi ulushi 30 foizdan 31 foizga oshdi.

Iqtisodiyotga tijorat banklari tomonidan ajratilgan kredit qo’yilmalari hajmi 2025-yil 1-yanvar holatiga 533.1 trln. So’mni (YalMga nisbatan 36.6 foiz) tashkil qilgan bo’lsa,1-fevral holatiga 866 mlrd.so’mga oshib,534 trln.so’mga yetdi.Jami kredit qoldig’i 2025 yil 1-fevral holatiga o’tgan yilning mos davriga nisbatan 14 foizga oshdi.Bunda jismoniy va yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar hajmi mos ravishda 20 va 11 foizga ortgan.Ushbu davrda jismoniy shaxslarga ajratilgan mikroqarzlar hajmi 75 foizga ko’paydi.

Ma’lumot uchun:mikroqarzlar uchun maksimal qiymat 2024 yil 1 yanvardan 50 mln.so’mdan 100mln. so’mga oshgan.

Milliy valyutadagi jami kreditlar bo’yicha o’rtacha tortilgan foiz stavkasi 2024-yilning yanvar oyida 24.1 foizni tashkil qilgan bo’lsa,dekabr oyida 23.4 foizga tushgan.

Milliy valyutadagi aholi kreditlari bo’yicha o’rtacha tortilgan foiz stavkalari 2024-yil dekabr oyida 24.9 foizgacha oshdi. (sentabrda 23.8 foiz edi). Buning asosiy sababi milliy valyutadagi kreditlarga bo’lgan talabning va inflyatsion kutilmalarning yuqoriligidir.

Depozitlar. Depozitlar uchun HHI indeks 2025-yil 1 fevral holatiga 636 birlikni tashkil etdi va o’tgan yilning mos davriga (668) nisbatan 32 birlikka yaxshilandi. 2024-yil 1 fevral holatiga,jami depozitlar hajmi 242.1 trln. So’mni tashkil qilgan bo’lsa, 2025-yil 1-fevral holatiga310.2 trln.so’mga yetdi(o’sish 28.1 foiz).

Xususiy va chet el kapitali ishtirokidagi banklarning bank tizimi jami depozitlar hajmidagi ulushi 2025-yil1yanvar holatiga 1 foiz bandga oshib,50 foizga yetdi,ammo 1-fevral holatiga “Ipotekabank” va “Tengebank”ning ulushu mos ravishda 0.67 foiz bandga va 0.37 foiz bandga qisqarishi natijasida davlat ulushi mavjud banklarning ulushi 1 foiz bandga yetdi.

Chet el valyutasi bank depozitlari bo’yicha o’rtacha tortilgan foiz stavkasi 2024-yil boshida 4.7 foizni tashkil qilgan bo’lsa,yil yakunida 5.3 foizga yetdi.Qolaversa,ushbu davrda milliy valyutaga jalb qilingan depozitlar hajmi 36 foizga,chet el valyutasida jalb qilingan depozitlar hajmi 7.4 foizga ortgan.

Tahlil qilinayotgan davrda aktivlar,kreditlar va depozitlar bo’yicha hisoblangan HHI indeksi raqobat darajasi oshib borayotganini ko’rsatmoqda.Bunda davlat ishtirokini kamaytirish,xorijiy investorlarni jalb qilish bo’yicha ko’rilayotgan chora tadbirlar raqobat sharoitlarini yaxshilash va bank sektorini yanada rivojlantirishga xizmat qilayotganidan dalolat beradi.

Asosiy qism

O’zbekistonda uzoq muddatli istiqbolda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

barqaror rivojlanish sohasida milliy maqsad va vazifalarga muvofiqlik;

resurslardan oqilona foydalanish, barqaror iste’mol va ishlab chiqarish;

iqtisodiy hisob tizimiga ekologik va ijtimoiy mezonlami kiritish;

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishish uchun “yashil” vositalar va yondashuvlami qo‘llash ustuvorligi;

milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlarida raqobatbardoshlikni oshirish va ko‘rsatkichlami yaxshilash, “yashil” ish o‘rinlarini yaratish, aholining farovonligini oshirish orqali mavjud makroiqtisodiy maqsadlarga erishish;

resurslardan samarali foydalanish tadbirlarining investitsion jozibadorligini ta’minlash.[4]

O’zbekiston-2030”strategiyasini”Atrof muhitni asrash va”Yashil iqtisodiyot”yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida iqtisodiyotni dekarbonizatsiya qilish va iqlim o‘zgarishiga moslashishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish bo‘yicha:

2025-yil 1-dekabrga qadar O‘zbekiston Respublikasida “yashil moliyalashtirish” tizimini shakllantirish bo‘yicha milliy dastur ishlab chiqilsin;

2025-yildan boshlab quyidagi manbalar hisobidan yashil va kam uglerodli rivojlanish loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga imtiyozli kredit va grant mablag‘larini jalb etish choralari ko‘rilsin:

Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan — bosqichma-bosqich 200 million yevrogacha;

Jahon bankidan — energetika sektorida metan emissiyasini kamaytirish uchun 10 million AQSh dollari;

Global yashil o‘sish instituti orqali Koreya xalqaro hamkorlik agentligi texnik ko‘magi doirasida — O‘zbekiston-Koreya o‘rtasida “yashil hamkorlik”ni kuchaytirish uchun 6,5 million AQSh dollari;

Jahon bankining “iCRAFT” loyihasi doirasida — 500 ming tonna qisqartirilgan issiqxona gazlarini sotish hisobiga 7,5 million AQSh dollari;

Germaniya xalqaro hamkorlik jamiyatidan — sanoatni yashillashtirish va azot kislotasi ishlab chiqaruvchi korxonalarning atmosferaga chiqarayotgan zararli gazlarini qisqartirish uchun 20 million yevro;

2025-yil sentabrga qadar “yashil iqtisodiyot” loyihalarini amalga oshirishda shaffoflikni ta’minlashga qaratilgan milliy “yashil iqtisodiyot” loyihalarini baholash tartibi tatbiq etilsin;

2025-yil noyabrga qadar qiymati 10 million AQSh dollaridan yuqori bo‘lgan davlat-xususiy sheriklik asosida yangi loyihalarni “Source” xalqaro platformasiga kiritish orqali loyihalarning “yashil komponent”lari va barqaror rivojlanish maqsadlariga mosligini baholash amaliyoti yo‘lga qo‘yilsin.[2]

Hulosa

Mamalakatimizda olib borilayotgan yashil iqtisodiyot ishlarini bajarishda barcha sohalarda zamon talablariga mos bo’lgan standartlar bilan amalga oshirilmoqda. Bank tizimida olib borilayotgan ishlarni misol qilib o’tishimiz mumkun.

O’zbekiston-2030”strategiyasini”Atrof muhitni asrash va”Yashil iqtisodiyot”yilida amalga oshirishga oid davlat dasturida, ustuvor yondashuvlar resurslardan tejamkorlik bilan foydalanishni ko‘zda tutuvchi iqtisodiy rivojlanish modeliga o‘tish orqali 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotning yillik o‘sishini kamida 6 foiz va uning hajmini 200 milliard AQSh dollariga yetkazish, inflyatsiyani 5 foiz, budjet taqchilligini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foiz darajasida saqlash, kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish maqsadlariga erishishga asos bo‘ladi.[2]

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son Farmoniga 1-ILOVA. 21-fevral, 2024-yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-yanvardagi PF-16-son Farmoni.
3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi huzuridagi Makroiqtisodiy va hududdiy tadqiqotlar instituti (MHTI), 2025-yil 1-fevral holatiga O’zbekiston bank tizimidagi raqobat darajasi
4. M.T.Asqarova,J.J.Jamolov,X.S.Xadjayev,Yashil iqtisodiyot, darslik,Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,Toshkent 2022 y.(7-12;265-266;267 betlar)

5. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi. O‘quv qo‘llanma. –T.: TMI, 2003.–305 b.
6. Abdullaeva Sh.Z. Pul kredit va banklar. –T.: IQTISOD-MOLIYA. 2007y.
7. Alimov I.I. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalari. O‘quv qo‘llanma. T.:TDIU. 2007
8. Sherali Sultonov Nuraliyevich, Nodira Soatova Bobokhanovna. Ways of Fund
9. Market Development in Uzbekistan. Eurasian Scientific Herald.2022
10. Ҳайдаров Н.Х. Молия: умумдавлат молияси. Т.: Иқтисод-молия, 2009
11. G.G. Nazarova, N.X.Xaydarov, M.T.Akbarov. Xalqaro iqtisodiy
12. munosabatlar. - T.: MChJ “RAM-S”, 2007
13. ТС Маликов, НХ Хайдаров. Молия: умумдавлат молияси.
14. Тошкент:«IQTISOD-MOLIYA, 2009
15. Т.Маликов, Н.Ҳайдаров. Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. 2007
16. Internet ma’lumoitlari